AKADEMIK IBROHIM MO‘MINOV: BIRINCHI USTOZIM − ONAM

Ibodova Nasiba Komilovna, Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti “O‘zbek tili va adabiyoti, xorijiy tillar” kafedrasi o‘qituvchisi,
e-mail: ibotovanasiba58@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek falsafa maktabiga tamal toshini qo‘ygan akademik Ibrohim Mo‘minov va uning volidayi muhtaramasi Mag‘firat opa haqidagi xotiralari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, olimning ilm-fanni rivojlantirish borasidagi tadqiqotlari tahlilga olingan.

Kalit so‘zlar: Ibrohim Mo‘minov, olim, ilm-fan, mutafakkir, ayol, ona, uyg‘onish davri, allomalar, xalqparvar zot, ilg‘or fikrli, millat.

АКАДЕМИК ИБРАХИМ МУМИНОВ: МОЙ ПЕРВЫЙ УЧИТЕЛЬ – МОЯ МАМА

Аннотация. В данной статье отражены воспоминания академика Ибрагима Муминова, заложившего краеугольный камень узбекской философской школы, и его родителей, уважаемой сестры Магфират. Также были проанализированы исследования ученого о развитии науки.

Ключевые слова: Ибрагим Муминов, ученый, наука, мыслитель, женщина, мать, эпоха Возрождения, ученые, человеколюбивая порода, прогрессивный мыслитель, нация.

ACADEMIC IBRAKHIM MUMINOV: MY FIRST TEACHER IS MY MOTHER

Abstract. this article reflects on the memories of the academician Ibrahim Mominov, who laid the foundation stone of the Uzbek school of philosophy, and his parents, the venerable Sister Magfirat. Also, the scientist’s research on the development of science was analyzed.

Keywords: Ibrahim Mominov, scientist, science, thinker, woman, mother, renaissance period, scholars, people-loving breed, progressive thinker, nation.

Ayol, bu – borliq va olam ko‘zgusidir. Uning go‘zalligi va latofati olamni charog‘on etadi. Chunki uning niyati pok, o‘zi pok. Shu bois bo‘lsa kerak, ayolini avaylab-asragan, e’zozlagan yurtning kelajagi porloq, deb naql qilishadi. Ushbu qiyoshni Vatanimizga va uning biri-biridan latofatli, oqila o‘zbek ayollariga nisbat qilsak, xato bo‘lmaydi. Har bir buyuk shaxs ortida buyuk ona turadi, degan haqiqat mavjud. Bunga misollarni ko‘plab keltirishimiz mumkin. Ilmning qaysi sohasini olib

qaramang, shu sohada yetishib chiqqan olimlarning yaxshi ustozlardan tashqari dastlabki ta'lim-tarbiyani onalaridan olishganini guvohi bo‘lamiz. Umuman, oilada farzand tarbiyasida onaning o‘rni beqiyosdir. Akadimik Ibrohim Mo‘minovdek buyuk farzand o‘stirib, tarbiyalagan, ona Vataniga, xalqiga sodiq, ilmli, zakiy farzand qilib o‘stirgan onalardan biri Mag‘firat opadir.

O‘zbekistan falsafa maktabining asoschisi, taniqli jamoat arbobi hamda mashhur olim Ibrohim Mo‘minov 1908-yilda Buxoro amirligi hududida joylashgan Shofirkon tumanining Tezguzar qishlog‘ida tavallud topgan. U otasi Abdulmo‘min Fayzullayevni o‘z ona tilidan tashqari rus, qozoq, tojik tillarida erkin gaplasha va yoza olgan inson sifatida ta'riflasa, onasi Mag‘firat opani Tezguzarda qizlar uchun maktab ochib, ularga ilmu urfon sirlarini o‘rgatgan zakiy ayol sifatida alohida xotirlaydi. Shuningdek, volidayi muhtaramasini juda bilimdon, zukko ayol bo‘lganligini, ko‘plab maqol, topishmoq, xalq og‘zaki ijodi namunalarini yod bilganligini, bolalarining ta'lim va tarbiyasiga juda qattiqqo‘l bo‘lishi bilan bir qatorda, farzandlariga Sharqning mashhur shoirlari ijodini o‘rgatgan ilk ustozi sifatida faxr bilan ta'riflagan. 1968-yili Ibrohim Mo‘minov 60 yoshga to‘lishi munosabati bilan jurnal muxbiri olim bilan suhbat o‘tkazadi. Mazkur suhbatda muxbir "Birinchi, bevosita ustozim deb kimni bilasiz?", - deya ilk savol bilan murojaat qiladi. Olim esa "Meni ilk bor o‘qishga, bilim olishga da'vat etgan bevosita ustozim – volidamdir", - deb eslaydi[1]. Bo‘lajak olimning xonadonidagi oilaviy kutubxonada A. Yassaviy, A. Navoiy, A. Jomiy, Hofiz Sheroziy, Sa'diy, So‘fi Olloyor va boshqa ijodkorlarning kitoblari bor edi. Oilada birgalikda Sa'diyning "Guliston" asarini mutolaa qilishgan. Otasidan erta judo bo‘lgan olimning ta'lim-tarbiyasida onasi qatori akalari Arabboy va Muso Mo‘minovlarning ham xizmati beqiyos.

Yoshligidanoq ilmga tashna va intiluvchanligi bilan tengqurlaridan ajralib turgan Ibrohim Mo‘minov dastlab musulmon maktabida, 1920-yildan keyin esa yangi tipdagi sho‘ro maktabida o‘qigan.

1922-1927-yillarda u Buxoro maorif institutida tahsil olish bilan birga shahardagi ikki yillik kursda talabalarga saboq berdi. U 1928-yilda bir guruh yurtdoshlari bilan Samarqandga - oliy pedagogika institutiga (keyinchalik pedagogika akademiyasiga aylantirilgan) o‘qishga jo‘nab ketadi va talabalikka qabul qilinadi. I. Mo‘minov shoir, yozuvchi, adabiyotshunos olim, mumtoz adàbiyotimizning bilimdoni Hamid Olimjon bilan birga o‘qigan.

1931-yilda Pedakademiyaning ijtimoiy-iqtisodiy fakultetini a'lo baholarda tugatib, shu yerda o‘qituvchi bo‘lib ishlay boshlaydi. 1933-yilda Pedakademiya bazasida O‘zbekiston davlat universiteti (hozirgi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti) tashkil qilindi. U yerda arxeolog, tarixchi-sharqshunos, V. Bartoldning yaqin hamkori V. L. Vyatkin (1869-1932), S. Ayniy (1878-1954), tarixchi-turkolog P. Soliyev (1882-1937), filolog, tarixchi, faylasuf, tarjimon, yozuvchi, shoir, zamonaviy o‘zbek adabiyotining asoschilaridan biri, birinchi o‘zbek tilshunos professori, o‘rta osiyolik mashhur jadid Abdurauf Fitrat

[1] "Fan va turmush" jurnali. 1968. 9-son. 2-bet

(1885-1937)dan saboq oladi va fan sirlarini o‘rganadi. Ibrohim Mo‘minov o‘z zamonasining zabardast allomalari Sadriddin Ayniy, Abdurahmon Sa’diy, Hamid Olimjon, Uyg‘un, Oydin kabi atoqli shoirlar, B. Soliyev, Y. G‘ulomov va boshqa tarixchilar bilan birga ishlagan, u mehnat faoliyatining dastlabki kunlaridayoq taniqli olim, shoir va yozuvchilar Sadriddin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Hamid Olimjon, tarixchilar B. Soliyev, Yahyo G‘ulomovdan saboq olib, o‘z iste’dodini charxlagan. I. Mo‘minov rus, qozoq, tojik tillarini puxta va mukammal bilgan.

1933-yilning 20-yanvarida Samarqand davlat pedagogika akademiyasi universitetga aylantiriladi. U yangi universitetning 1933-yildan Birlashgan adabiyot fakulteti dekani, 1933-yildan 1935-yilgacha SamDUning tarix fakulteti dekani sifatida katta jonbozlik ko‘rsatadi. O‘sha yillari bu ilm maskanida o‘z she’rlari bilan she’riyatga chaqmoqdek chaqnab kirgan Usmon Nosir, tojik dramaturg va shoiri Abdullo G‘ani, Manzura Sobirova, Ubay Oripov, Muhammadqul Narziqulov va boshqalar ta’lim oladi.

1937-yilda uning akasi Arabboy Mo‘minov NKVD tomonidan hibsga olinadi, 10-yil muddatga qamoqqa hukm qilinadi. Ana shunday og‘ir damlarda u katta akasining farzandlariga g‘amxo‘rlik qilishni o‘z zimmasiga oldi. Jiyanlaridan biri V. A. Mo‘minov keyinchalik taniqli olim bo‘lib kamol topdi va yuqori lavozimlarda faoliyat yuritdi.

O‘zbekistonda sho‘rolar tomonidan XX asrning 20-yillar oxiri 30-yillar boshida zo‘ravonlik, majburlash yo‘li bilan amalga oshirilgan “madaniy inqilob” milliy madaniyatimizni barbod qilish, milliy an’analarni yo‘qotishga qaratilgan siyosiy tadbir edi. Markaziy hokimiyat tomonidan xalqimizning ko‘p asrlik an’ana, urf-odat va qadriyatlari zararli deb topildi va ular ta’qib ostiga olindi. 1929-yilda xalqimizning qadim shonli tarixi, nodir ilm-fani, bebaho madaniyatini o‘zida jamlagan uyg‘onish davri allomalari Beruniy, Ibn Sino, Zamaxshariy, Ulug‘bek singari mutafakkirlarning arab tilida yozilgan asarlarini xalqdan uzoqlashtirish maqsadida arab imlosiga asoslangan o‘zbek yozuvi dastlab lotin, 1940-yilda esa kirill imlosiga almashtirildi. Muqaddas islom dini va u bilan bog‘liq barcha qadriyatlar sun’iy ravishda zararli deb topildi, uning o‘rniga xalqning ong, tafakkuriga sho‘ro mafkurasini singdirishga harakat qilindi. Rus tili davlat tili darajasiga ko‘tarilib, asosiy muomala tiliga aylantirildi, milliy ona tilimiz ikkinchi darajali til maqomiga tushirildi. Ana shu qaltis vaziyatda ham madaniyat sohasida muayyan yutuklar qo‘lga kiritildi. Savodsizlikni tugatish ishlari olib borildi, pedagogik va ilmiy kadrlar tayyorlash maqsadida yangi maktablar, texnikumlar va institutlar tashkil qilindi. Mustabid totalitar tuzum, mafkuraviy tazyiq, soxta va yolg‘on aqidabozlik, kuchli nazorat, zug‘umga qaramay, xalq orasidan millatimiz faxri bo‘lgan noyob iste’dod egalari yetishib chiqdi. Ilm va adabiyotni yonma-yon olib borgan Oybek va uning safdoshlari G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Zulfiya, Abdulla Qahhor, qatag‘onga uchragan Maqsud Shayxzoda, Mirtemir kabi yozuvchi va shoirlar, mashhur geolog Habib Abdullayev, Obid Sodiqov, Yahyo G‘ulomov kabi olimlar, Olim Xo‘jayev, Razzoq Hamroyev, Shukur Burhonov, Lutfixonim Sarimsoqova, Halima Nosirova, Tamaraxonim kabi san’atkorlar yetishib chiqdi. Ana shunday xalqparvar zotlar qatorida ilg‘or fikrli, millat uchun

qayg‘uradigan, chin dildan o‘z vatanini sevadigan inson Ibrohim Mo‘minov ham bor edi.

1941-yilda I. Mo‘minov Gegel falsafasining ratsional mag‘zi xususida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Ustod Sadriddin Ayniy ilmiy ishni yoqlash jarayonida ilmiy kengashda ishtirok etib, yosh olim iqtidoriga yuksak baho bergan edi.

Ma’lumki, sobiq SSSR FA O‘zbekiston filiali negizida 1943-yilning 4-noyabrida O‘zbekistonda Fanlar Akademiyasi tashkil qilindi va uning birinchi prezidenti T. N. Qori-Niyoziy edi. Bu ilm maskanining tashkil etilishi o‘zbek xalqi madaniy, o‘zbek ilm-fanida o‘ta muhim hodisa bo‘ldi. Bu dargoh O‘zbekiston ilmiy tafakkurining markazi bo‘lib qoldi. Bu davrda turli fanlar bo‘yicha taniqli olimlar T. N. Qori-Niyoziy, T. A. Sarimsoqov, H. N. Abdullayev, S. Sodiqov, S. Y. Yunusov, A. N. Askochenskiy va boshqalar samarali ilmiy izlanishlar olib borgan. Faylasuf I. M. Mo‘minov nomlari zikr etilgan zahmatkash olimlar bilan yelkama-yelka turib, falsafa fanining rivoji uchun fidokorona mehnat qildi. Ikkinchi jahon urushi tufayli Moskva, Leningrad, Kiyev, Minsk va boshqa shaharlardan ko‘chirib kelingan olimlar, shoirlar, yozuvchilar va san’atkorlar O‘zbekiston olimlari va ijodkorlari bilan mustahkam aloqada ish olib bordilar. I. Mo‘minov shu yili O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining muxbir-a’zosi etib saylandi. 1950-yilda doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Uning doktorlik dissertatsiyasiga S. Ayniy va Ye. E. Bertels ilmiy maslahatchi edilar. 1956-yilda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademikligiga munosib deb topildi. 1955-56 yillarda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya instituti direktori sifatida faoliyat ko‘rsatdi. 1956-yilda Fanlar akademiyasining vitse-prezidentligiga saylangach, umrining oxirigacha ushbu vazifada faoliyat yuritdi. Akademiyaning vitse-prezidentligi, O‘zFAning Tarix va arxeologiya institutiga rahbarlik yillarida, Falsafa va huquq institutini tashkil etish jarayonida uning yetuk tashkilotchilik qobiliyati, ayniqsa, yorqin namoyon bo‘ldi.

O‘zbekistan FAning 1957-yildan buyon chop qilinayotgan ijtimoiy-gumanitar fanlar masalalarini yorituvchi “O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar” (“Общественние науки в Узбекистане”) ilmiy jurnalining tashabbuskori va birinchi bosh muharriri (1957-1974) I. Mo‘minov bo‘lgan. Bu jurnal ikki tilda: o‘zbek va rus tillarida yaxlit holda nashr etiladi. Bugun ham jurnalda iqtisodiyot, falsafa, huquq, shuningdek, sharqshunoslik va tarix fanlari (etika, arxeologiya, numizmatika, san’at tarixi va b.) bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar, mazkur sohalarga doir eng so‘nggi yangiliklar muntazam ravishda chop qilib boriladi. Mazkur tadqiqotlarda yurtimizning mustaqillik sharoitida rivojlanish yo‘llari, demokratik huquqiy davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish kabi dolzarb masalalarga, yosh avlodni milliy qadriyat va an’analarga sadoqat ruhida tarbiyalash muammolariga alohida e’tibor qaratiladi.

Alloma “Fan va turmush” oynomasida bosh muharrir, ayni vaqtda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Falsafa va huquq institutining tashkilotchisi va birinchi direktori (1958-59), O‘zbekiston “Bilim” jamiyati boshqaruvi raisi (1958-yildan) bo‘lib ishlagan.

O‘tgan asrning oltmishinchi yillari so‘ngida sobiq ittifoqdosh respublikalarda universal qomuslar chop etila boshlandi. O‘zbekistonda ham 1971-1980-yillarda 14 jildli “O‘zbek sovet ensiklopediyasi” (O‘zSE) nashr etildi. Uning birinchi bosh muharriri akademik I. M. Mo‘minov edi, qomusning 10-jildidan boshlab esa akademik K. A. Zufarov muharrirlik qilgan. Mazkur qomusda jami 40000 dan ortiq maqola berilgan. Albatta, bu maqolalarining ilmiy-nazariy va g‘oyaviy-siyosiy yo‘nalishi o‘sha davr talabiga ko‘ra markscha-lenincha mafkuraga asoslangan edi.

I. Mo‘minov bu mashaqqatli ishni amalga oshirishdan oldin respublikadagi yetakchi, o‘z sohasini mukammal biladigan mutaxassislardan iborat maxsus jamoani shakllantirdi. Qomus har bir millatning o‘tmishiga tutilgan ko‘zgu, unda o‘sha millat, o‘sha xalq o‘tmishi, madaniyati, ma’naviy merosi, ilm-fani, ma’rifati, qadriyat, an’ana, urf-odat, mashhur shaxslari, iqtisodi, dunyo sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi, jahon xalqlari orasidagi mavqei, bir so‘z bilan aytganda, millat bor bo‘y-basti bilan aks etadi. Faylasuf A. Valiyevning bevosita guvoh bo‘lganlari o‘sha davrning qanchalar murakkab, tahlikali bo‘lganligini yana bir karra isbotlaydi: “O‘sha yillari mahalliy kadrlarni – olimlar, yozuvchilar va boshqalarni arzimagan sabab bilan, ba’zida sababsiz ham o‘tmish tarixni, madaniyatni, ayrim shaxslarni ilohiylashtirishda, milliy cheklanganlikda, umuman, millatchilikda ayblash, bu bilan ziyolilarning milliy g‘urur, ma’naviy qadriyatlar uchun kurashiga yo‘l qo‘ymaslik, tarixiy xotirasini o‘chirishga qaratilgan shovinistik harakat keng avj olgan edi. Ana shu sharoitda Qomusda yuqorida aytilgan shaxslar va voqea, harakatlarga obyektiv va ilmiy to‘g‘ri baho berish nihoyatda mas’ul va mushkul edi. Har bir maqola bir necha kishiga taqrizga berilardi, qayta-qayta muhokama etilardi. Ba’zi maqolalarni, masalan, Behbudiy, jadidchilik va shunga o‘xshash maqolalar bir necha marotaba qaytadan yozilgan edi. Ana shu maqolalarni obyektiv va ilmga asoslanib tayyorlashda, ularni yuqori tashkilotlar oldida himoya qilishda I. M. Mo‘minov zabardast qalqon edi”.[2]

Olim XIX asr oxiri - XX asr boshlarida ijod qilgan Ahmad Donish, Furqat, Zavqiy, Muqimiy, Ayniy kabi taniqli ma’rifatparvar olim, yozuvchi hamda shoirlarning falsafiy qarashlarini tahlildan o‘tkazdi. Chunonchi, tadqiqotlaridan biri Abdulqodir Bedilning falsafiy merosini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, izlanishlar natijasi 1957-yilda chop etilgan “Mirzo Bedilning falsafiy qarashlari” nomli monografiyada ifodasini topdi. U mustabid tuzum davrida O‘zbekistonda ilk marotaba 1958-yili o‘tkazilgan Zahiriddin Muhammad Boburning 475 yilligiga bag‘ishlangan ilmiy konferensiya tashkilotchisi sifatida anjuman ochilishida nutq so‘zladi. 1965-yilda olim Abdurahmon Jomiyning, 1967-yili esa Mirzo Ulug‘bekning shogirdi, taniqli astronom, mutafakkir olim Ali Qushchining falsafiy qarashlariga bag‘ishlangan maqolalarini nashr ettirdi.

Akademik Muzaffar Xayrullayev Ibrohim Mo‘minovning ilmiy faoliyatiga baho berar ekan, olimning tadqiqotlari bevosita o‘z xalqi manfaatlarini himoya qilish, uning ma’naviyat tarixining o‘ziga xos va boy ekanligini isbotlashga qaratilgan edi, deya ta’kidlaydi.

[2] Valiyev Q. Jonkuyar ustoz.O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. 1998, №12, 61-b.

Ustoz Ibrohim Mo‘minovning ilmiy faoliyatida Amir Temur tuzumini o‘rganishga oid izlanishlar alohida o‘rin egallaydi.

U 1969-yilda Samarqandda YUNESKO tomonidan o‘tkazilgan hamda temuriylar davri san’atiga bag‘ishlangan xalqaro simpoziumning tashabbuskori bo‘ldi. Olim qalamiga mansub “Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli” nomli risola tom ma’noda istibdod zamonida “qonxo‘r”, “zolim”, “bosqinchi” iboralari bilan qora bo‘yoqlarga chaplangan, aslida ma’rifatparvar, tarixiy davlatchiligimiz asoschisi Amir Temurning faoliyati adolatli talqin qilingan, aniq dalillaru misollarga asoslangan tadqiqot sifatida ko‘ngillarimizga taskin bag‘ishladi, qalbimizda bitmas- tuganmas faxr-hissiyotlarini uyg‘otdi.

Asarda buyuk bobokalonimizning bunyodkorlik faoliyati ham keng yoritilib, mamlakat hamda jahon tarixidagi ulug‘vor mavqei, o‘rni mufassal tasdiqlab beriladi. Aynan mana shu jihat Amir Temur shaxsiga yuksak baho, isbot va talqin, milliy o‘zlik, tarixiy haqiqatlar oyoq osti qilingan, ma’naviy ta’qiqlar hukm surgan zamonda ilmiy jasorat, insoniy mardlik namunasi edi.

Ibrohim Mo‘minovning “Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli” nomli risolasi 1968-yili nashr etiladi. Risolada Amir Temurning mustaqil markazlashgan davlat tuzish yo‘lidagi kurashi, Movarounnahrni birlashtirishdan manfaatdor bo‘lgan yuqori tabaqa vakillari kabi kuchlar va birlashishga zid harakatlarga, o‘zaro urushlarga undovchilarga qarshi olib borilgan kurashlar haqida fikr boradi. Sohibqiron Amir Temurning harbiy yurishlari, mamlakat osoyishtaligi, uning ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-madaniy yuksalishi haqidagi ilmiy xulosalar bayon etiladi. Uning ilm-fan, ma’naviyat-madaniyat sohasi vakillariga katta e’tibor bergani ham ta’kidlangan. Asarda keltirilganidek, Amir Temur O‘rta Osiyoda shaharlarning qurilishiga, ilm-fan, din ahliga e’tibor berdi. Savdo-sotiq va hunarmandchilikka keng yo‘l ochdi, boshqa davlatlar bilan aloqalarni kengaytirdi, mamlakatni boshqarish uchun “Temur tuzuklari”ni yaratgan xalqparvar hukmdor bo‘lgan. U harbiy sohani mustahkamladi, iqtisodiy va siyosiy baquvvat davlat tuzumini vujudga keltirdi, buyuk va jasur sarkarda, mohir davlat arbobi bo‘lib tanildi.

Muallif ushbu risolani yaratishda Sharafiddin Ali Yazdiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Hermann Vamberi asarlari, ispan elchisi Klavixoning kundaliklari va “Temur tuzuklari” kabi tarixiy manbalardan foydalanganligini ta’kidlagan. Shu o‘rinda aytish kerak, I. Mo‘minov bir kun kelib Amir Temur nomi ulug‘ kishilar qatoridan joy olishiga ishongan va “siz ko‘rasiz, shunday vaqtlar keladiki, Amir Temurni ko‘klarga ko‘tarib, buyuk shaxs sifatida qadrlaydilar” deb ta’kidlagan. Qarangki, bugungi kunda ushbu orzular ro‘yobga chiqdi. Amir Temurning ulug‘vor va buyuk qadr-qimmati o‘rniga qo‘yildi. Uni buyuk shaxs, vatanparvar, ilm-fan va madaniyat homiysi sifatida ta’rif eta boshladik, u biz orzu qilgandek, xalqning faxr-iftixoriga aylandi [3].

Darvoqe, haqikatga yo‘g‘rilgan bu tarixiy risola ba’zi kimsalarning g‘ashiga tegdi. Boz ustiga Ibrohim Mo‘minov Temur haqidagi bor gapi oshkor etishda yana izchil davom etdi. O‘shanda “Temur tuzuklari”ni, Sharafuddin Ali Yazdiyning

[3] http://www.gglit.uz/

“Zafarnoma” solnomasini ketma-ket chop ettirib, o‘quvchilarga taqdim etgani olimga qarshi raqiblar xurujini battar keskinlashtirib yubordi. Amir Temurni qora bo‘yoqqa chaplab, yostiqday- yostiqday kitoblar bitgan yozuvchilar, temurshunos olimlar Ibrohim Mo‘minovga qarshi yurish boshladilar. Bir guruh olimlar esa laganbardolik yo‘lini tutib, “markaz”ga bosh urib bordilar. Mojaroning bir uchi o‘sha davr nazariyotchilarining sardori, sobiq KPSS Markaziy Komitetining kotibi Suslovgacha borib yetdi. To‘rt tarafdan olim boshiga malomat toshlari yog‘ila boshladi.

Faylasufning iqtidorli shogirdlaridan biri professor H. Ziyoyev Ibrohim Mo‘minovga nisbatan o‘tkazilgan tazyiqlar to‘g‘risida yozar ekan, faylasufga qarshi hujumlar 1968-yildan to 1974-yilgacha davom etganligini, o‘sha yillarda Ibrohim Mo‘minovning ustidan “markaz”ga ko‘plab imzoli va imzosiz xatlar yuborilganligini tilga oladi. Ustozining komil ishonch bilan aytgan quyidagi gapini esga oladi: “Hamidulla, hali siz ko‘rasiz, shunday vaqt keladiki, Amir Temurni ko‘klarga ko‘tarib, buyuk siymo sifatida qadrlaydilar”, degan edi”.[4]

Ibrohim Mo‘minov O‘zbekistonda falsafa sohasida birinchi fan doktori edi. Olim zamonaviy falsafa ilmi rivojiga ulkan hissa qo‘shdi. Tinib-tinchimas faylasuf qo‘l urmagan, nazari tushmagan tarix qatlari qolmadi hisob. Fan sohasida juda ko‘p zahmatlar chekib, o‘z davri olimlari orasida falsafa fani peshqadami bo‘lib tanildi.[5] Akademik Ibrohim Mo‘minovdek buyuk o‘g‘lonni dunyoga keltirib, tarbiyalagan, jamiyatga nafi tegib, ilm-fanni rivojlantirgan oqilu olim o‘stirgan Mag‘firat opa Mo‘minova singari ayollarimiz bugungi Yangi O‘zbekistonning tayanchidir.

Xulosa va tavsiyalar.

Umumlashma xulosalar shundan iboratki, XX-asr o‘zbek falsafasi taraqqiyotida akademik Ibrohim Mo‘minovning muhim o‘rni va xizmatlari bor. Faylasufning ijtimoiy-siyosiy qarashlarining mag‘zida komil inson konsepsiyasi va adolatli jamiyat muammosi turadi. Mutafakkir o‘z ilmiy-nazariy qarashlarini ilgari surishda Sharq donishmandlari merosiga tayanadi. Maqola natijalaridan kelib chiqib quyidagi xulosalarga keldik:

1. Bir necha ming yillik tarixiy falsafamiz XX-asrning 20-40 yillarida inqirozga yuz tutishining asosiy sababi sho‘ro mafkurasini majburan xalq ongiga singdirish maqsadida milliy merosga o‘rganishga to‘siq qo‘yilishi, faylasuf, ijodkorlarga nisbatan zulm-zo‘ravonlikning avj olishi, sobiq sovet mafkurasiga zid har qanday g‘oyaning rad etilishi, milliylik bilan bog‘liq xolis fikr egalarining xalq dushmani sifatida qatag‘on qilinishi bo‘ldi.

2. O‘zbekiston falsafiy fikrlari taraqqiyotining cho‘qqisida Alisher Navoiy falsafasi turadi. Bu falsafa so‘fizmning naqshbandiya tariqatidan oziqlangan bo‘lib, insoniylik mohiyatini odamning faoliyatidan izlovchi, ilohiylik va insoniylik o‘rtasida ko‘prik bo‘luvchi, fano va baqo, suvrat va siyrat, zohiriy va botiniy dunyolar haqida bahs yurituvchi, inson tafakkuri va ma’naviyati qudratini yorqin ifodalovchi falsafadir.

[4] Ziyoyev H. Amir Temurni “oqlashda” Ibrohim Mo‘minovning roli. 1974. 39-b;

[5] Xayrullayev M. M. Ibrohim Mo‘minovning katta ilmiy jasorati. (Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli kitobida 5-b). - T.; Fan, 1993.

3. O‘zbekiston falsafasi sharq falsafasining tarkibiy qismiga kiruvchi va o‘zbek xalqining o‘ziga xos tafakkur tarzining ifodasidir. Uning tarixiy ildizlari qadimgi Turon va Turkistondagi xalq og‘zaki ijodiga oid hikmatlar, dostonlar, maqol va rivoyatlar, xalq baxshilarining og‘zaki ijodiy merosi, mutafakkirlarning falsafiy asarlari, muqaddas tangriga e’tiqod va Avestodagi ezgulik g‘oyalari, tariximizda o‘tgan moniylik, mazdakiylik, buddizm, yahudiylik hamda xristianlik dinlaridan kirib kelgan hikmatlar, islom falsafasi va islom dinining muqaddas kitoblari, kubroviylik, yassaviylik va naqshbandiya ta’limotlari tamoyillariga, xalqimizning istilochilarga qarshi kurashlarda tayangan vatanparvarlik g‘oyalari va ma’naviy-axloqiy qadriyatlariga borib taqaladi. Bu falsafa jahon falsafiy merosi durdonalaridan oziq oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Fan va turmush” jurnali. – T., 1968. 9-son. 2 b.
2. Valiyev Q. Jonkuyar ustoz. O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. 1998 ¹12, 61 b.
3. http://www.gglit.uz/
4. Ziyoyev H. Amir Temurni “oqlashda” Ibrohim Mo‘minovning roli. 1974. 39 b;
5. Xayrullayev M. M. Ibrohim Mo‘minovning katta ilmiy jasorati. (Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli kitobida 5-b). -T.; Fan, 1993.
6. N. Ibodova. Ziyo distributed from tezguzar. 2020. August. Journal NX. Indiya.
7. Ibodova Nasiba Komilovna. Ibrahim Muminov’s Scientific and Philosophical Heritage and Subjective Approaches to His Scientific Activity Under the Rule of the Former Ideology. International Journal on Integrated Education. https://www.neliti.com/journals/ijie. 2022. June. Indonesia.
8. N. Ibodova. Ahmad Donishning taraqqiyparvarlik qarashlari. Ilm sarchashmalari. 2021-yil. Dekabr.
9. N. Ibodova. Ibrohim Mo‘minov talqinida Alisher Navoiy merosi. “Духовное наследие Алишера Навои источник общечеловичесний ценностей”. Бухара. 2022.
10. N. Ibodova. Ibrohim Mo‘minov ilmiy-falsafiy merosi va sobiq mustabidlik mafkurasi hukmronligi davrida olimning ilmiy faoliyatiga subyektiv yondashuvlar. Suv va yer resurslari jurnali. Buxoro. 2022.
11. N. Ibodova. Abu Rayhon Beruniy ilmiy asarlari tahlili. Filologiyaning zamonaviy muammolari. To‘plam. Toshkent. 2022.
12. N. Ibodova. Ibrohim Mo‘minov ilmiy merosida Ali Qushchi talqini. Filologiyaning zamonaviy muammolari. To‘plam. Toshkent. 2022.
13. N. Ibodova. Mustabid davrda Amir Temur faoliyatini o‘rganishdagi Ibrohim Mo‘minovning o‘rni. Turkiy xalqlar filologiyasida fundamental tadqiqotlar va innovatsion ta’lim texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Nukus. 2022.
14. N. Ibodova. Alisher Navoiy merosi Ibrohim Mo‘minov tadqiqi va talqinida. O‘zbekiston Xotin-qizlar “Olima” uyushmasining 30-yillik yubileyiga bag‘ishlangan

Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda xotin-qizlarning roli. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Toshkent. 2022.